O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY-GUMANITAR SOHALARDA QATAR DAVLATI BILAN O‘RNATGAN MUNOSABATLARI

Ergasheva Zulfizar Erkin qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi
+998936718870
zulfizarergasheva111@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy o‘sish, xalq farovonligini ta’minlash hamda madaniy-gumanitar sohalarda rivojlanish uchun imkon qadar dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlari bilan do‘stlik va tinchlik aloqalarini yo‘lga qo‘ymoqda. Ushbu maqolada 2023- yilning 1-2- oktabr kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qatarga qilgan tashrifi davomida ikki davlat o‘rtasida imzolangan shartnomalar va o‘rnatilgan hamkorlik masalalari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Memorandum, investitsiya, Doha, vizasiz rejim, parlamentlararo aloqalar, kapital, modernizatsiya, infratuzilma, elektr stansiyasi, Ko‘rfaz mamlakatlari, transport-logistika, turizm, yalpi ichki mahsulot.

Аннотация: Республика Узбекистан устанавливает дружественные и мирные отношения со многими развитыми странами мира, максимально для экономического роста, обеспечения благосостояния народа и развития в культурно-гуманитарной сфере. В данной статье представлена подробная информация о соглашениях, подписанных между двумя странами и установленных вопросах сотрудничества в ходе визита Президента Шавката Мирзиёева в Катар 1-2 октября 2023 года.

Ключевые слова: меморандум, инвестиции, Доха, безвизовый режим, межпарламентские отношения, капитал, модернизация, инфраструктура, электростанция, страны Залива, транспортно-логистика, туризм, валовой внутренний продукт.

Abstract: The Republic of Uzbekistan is establishing friendly and peaceful relations with many developed countries of the world as much as possible for economic growth, ensuring people's well-being and development in cultural and humanitarian spheres. This article provides detailed information about the agreements signed between the two countries and established cooperation issues during the visit of President Shavkat Mirziyoyev to Qatar on October 1-2, 2023.

Key words: memorandum, investment, Doha, visa-free regime, inter-parliamentary relations, capital, modernization, infrastructure, power plant, Gulf countries, transport-logistics, tourism, gross domestic product.

KIRISH

Ma’lumki, har qanday davlat boshqa davlatlar bilan xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni qancha ko‘p yo‘lga qo‘yar ekan, shunchalik jadal rivojlanishi oson kechadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi turli davlatlar bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratmoqda. Hattoki, tashqi siyosat masalasi bo‘yicha 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumga asosan O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi IV bobi 17-moddasiga yana bir norma qo‘shilib, ikkita alohida moddaga ajratildi. O‘zbekiston Respublikasi bosh qomusi bo‘lgan Konstitutsiyaning 18-moddasi 1-bandida shunday yozib qo‘yildi: “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p

tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.”

ASOSIY QIQatar qanday qilib iqtisodiy rivojlangan va boy davlatga aylandi?

2021-yilgi Iqtisodiy erkinlik indeksiga ko‘ra, Qatar dunyodagi eng erkin mamlakatlar ichida 44-o‘rinda ekanligi ko‘rsatilgan.[2] Yalpi ichki mahsulot hajmi yuqori va boy davlatlar orasida esa 2022-yil hisobi bo‘yicha 4-o‘rinni egallagan.[3] Gaz va neft resurslariga eng boy mamlakatlardan ekanligi ham Qatar iqtisodiyotining kuchli tomonlaridan hisoblanadi. Jumaldan, mamlakat YAIMning 65%i yoqilg‘i energiyasi eksportidan olingan. Shunday rivojlangan davlat ham o‘zining global ta’sirini kuchaytirishni tashqi siyosat orqali amalga oshirmoqda. 2022-yilda futbol bo‘yicha jahon chempionatiga mezbonlik qilish orqali ham Qatar jahon arenasidagi o‘rnini mustahkamlab oldi, ham mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini yana bir pog‘onaga olib chiqdi.

O‘zbekiston-Qatar munosabatlari:

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining Ko‘rfaz mamlakatlari bilan munosabatlari faollashmoqda. O‘zbekiston Respublikasi va Qatar o‘rtasida diplomatik aloqalar 1997-yil 27-noyabrda yo‘lga qo‘yilgan. 2010- yil 23-24-noyabr kunlari, 2021-yil 10-11-aprel kunlari ham O‘zbekiston delegatsiyasi va Qatar o‘rtasida ikki tomonlama munosabatlarni kengaytirish masalalari muhokama qilingan. 2022- yil o‘zaro savdo hajmi 4.8 million dollarni tashkil etdi. Qatar Amirining 2023-yil iyun oyida Samarqandga qilgan tashrifi esa ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni boshlab berdi. Ikki mamlakat poytaxtlari o‘rtasida aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yildi. Yaqin kelajakda Qatarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishi va infratuzilmasi modernizatsiya qilinadi, ya’ni yuqori texnologiyalar asosida zamonaviylashtiriladi. Hozirda esa Qatarning yirik kompaniyalari bilan hamkorlikda Sirdaryo viloyatida 1.6 GVt quvvatli elektr stansiyasi qurish davom etmoqda, Surxondaryo viloyatida esa issiqlik elektr stansiyasi barpo etish ishlari yakuniga yetmoqda, bu hamkorlik ishlari esa O‘zbekistonning chekka qishloqlariga ham elektr yetib borishiga zamin yaratadi.[4]

O‘zbekiston va Qatar o‘rtasida faqat iqtisodiy emas, parlamentlararo munosabatlar ham rivojlanib bormoqda. Ikki mamlakat parlamentlarida parlamentlararo guruhlar ham tashkil etilgan.

Qatarning O‘zbekistondagi elchixonasi ham Toshkent shahrida 2023-yil tashkil qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 1-2-oktabr kunlari Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan Qatarga tashrif buyurdi. Qatar poytaxti Dohada o‘tkazilgan bu muzokarada savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy almashinuvni faollashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev faqatgina amir bilan uchrashibgina qolmay, Qatarning yirik kompaniyalari rahbarlari bilan ham uchrashuvlar o‘tkazdi. Bundan maqsad ham O‘zbekistonda mehmonxona va biznes infratuzilmasi, sog‘liqni saqlash va tezyurar avtomagistral qurilishida Qatar investitsiyasiga erishish edi va bunga erishildi. Uchrashuvda Transafg‘on temir yo‘lini barpo etish bo‘yicha strategik loyihani birgalikda ilgari surish istiqbollari ko‘rib chiqildi. Qatar kompaniyalari energetika, gaz-kimyo, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma, logistika, turizm va boshqa tarmoqlarda qiymati $12 mlrd. dan ziyod loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etishi yuzasidan kelishuv imzolandi.[5] Infratuzilmalarning qurilishi esa O‘zbekistonda yangi ish o‘rinlari yaratib, ishsizlik muammosiga yanada barham beradi va

turizm hamda iqtisodiyot rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Sababi, hozirda garchi O‘zbekiston har qanday sayyohni o‘ziga jalb qiluvchi tarixiy shaharlarga ega bo‘lsa-da, turizm sohasini rivojlanishdan to‘sib turgan omil aynan transport hamda yetarli aviaqatnovlar mavjud emasligi bo‘lib turibdi. Rivojlangan Qatar bilan qilinayotgan aloqalar bu muammoga ham chek qo‘yilishga hissa qo‘shadi.Yuqorida sanab o‘tilgan kelishuvlar iqtisodiyotga aloqador bo‘lsa, ikki davlat madaniyat, ta’lim, konsert dasturlari, ko‘rgazmalarnamoyishlarini o‘tkazishga kelishib olishdi.

Vizasiz rejim

Ushbu uchrashuvdan so‘ng yana bir xushxabarni aytish lozimki, Qatar O‘zbekiston fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejimni joriy qildi. Buning uchun O‘zbekiston fuqarosidan quyidagilar talab qilinadigan bo‘ldi:

1. Qaytish chiptasiga ega bo‘lishi;
2. Xorijga chiqish passportining amal qilish muddati 6 oydan kam bo‘lmasligi.

Avvalroq, 2021-yilning 1-martidan boshlab O‘zbekiston Qatar fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejim joriy qilganligini eslatib o‘tish kerak. Qatar amiri bilan Samarqandda o‘tkazilgan uchrashuv arafasida Prezidentning “Qatar Davlati fuqarolari uchun O‘zbekistonga kirishda vizasiz rejimni belgilash to‘g‘risida”gi(PF—86-son, 05.06.2023) farmoni qabul qilingan edi.[7]

XULOSA

Qatar davlati bilan imzolashga erishilgan bunday shartnomalar va memorandumlar O‘zbekiston Respublikasining har tomonlama rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi bunday hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki O‘zbekistonda barpo etilayotgan ko‘plab infratuzilmalar Qatar kompaniyalari kiritgan investitsiya orqali amalga oshiriladi. Qatar davlati bilan o‘rnatilgan munosabatlar boshqa arab davlatlari bilan ham shunday do‘stona munosabatlar o‘rnatilishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston”—Toshkent 2023
2. Stephen Maunder “The government and Politicial system in Qatar”

   (2022.14.03)https://www.expatica.com/qa/living/gov-law-admin/government-and-politicalsystem-in-qatar-70986/
3. Richest Countries in the World 2023 | Global Finance Magazine

WORDLY
KNOWLEDGE